



O'QUVCHILARDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Mustaqimova Manzura Muzaffarovna – Shofirkon tumani 1-maktab psixologi (Buxoro, O'zbekiston).

Jumayeva Dilorom Murodullo qizi - Shofirkon tumani 37-maktab psixologi (Buxoro, O'zbekiston).

Anotatsiya. Mazkur maqolada maktab o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini oshirishning samarali psixologik usullari yoritilgan. Motivatsiya tushunchasi, uning turlari va o'quvchilar o'rtaida motivatsiyaning pasayishiga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, motivatsiyani oshirishda individual yondashuv, maqsad qo'yish, emotsiyal qo'llab-quvvatlash, o'yin texnologiyalaridan foydalanish kabi psixologik yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola maktab psixologlari, o'qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: motivatsiya, o'quvchi, psixologik usullar, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, psixologik qo'llab-quvvatlash, ta'lif, o'z-o'zini baholash, SMART maqsadlar, rag'batlantirish.

Bugungi kunda ta'lif tizimida yuksak natijalarga erishish, avvalo, o'quvchining ichki faolligiga, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va tashabbuskorligiga bog'liq. Bunday faollik esa, asosan, motivatsiya — ichki ruhiy kuch, o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj orqali shakllanadi. Shuning uchun ham maktab psixologi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarda motivatsiyani aniqlash, rivojlantirish va kerak bo'lsa, uni faollashtirishdir.

Motivatsiya tushunchasi va uning turlari

Motivatsiya — bu inson faoliyatini boshlovchi, yo'naltiruvchi va uni amalgalashishga undovchi ichki psixologik jarayonlar majmuidir. O'quv faoliyatida motivatsiya ikki xil bo'ladi:



Ichki motivatsiya – bilim olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj, qiziqish, shaxsiy rivojlanishga intilish.

Tashqi motivatsiya – mukofot, baho, ota-onaning yoki o‘qituvchining e’tirofi kabi tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiya barqaror va uzoq muddatli natijalarga olib keladi, tashqi motivatsiya esa vaqtinchalik bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar

Maktab amaliyatida o‘quvchilarda motivatsiyaning pasayishiga olib keluvchi bir qator psixologik va tashkiliy omillar mavjud:

- O‘z-o‘ziga ishonchning pastligi;
- Rivojlanishdagi individual farqlarni inobatga olmaslik;
- O‘quv jarayonining zerikarli, shablon bo‘lishi;
- O‘qituvchi va ota-onaning bosimi, haddan tashqari talabchanlik;
- Muvaffaqiyatsizliklardan so‘ng qo‘rquv va tashvish.

Shuning uchun ham psixolog motivatsiyani faollashtirishga doir aniq usullar va yondashuvlarni ishlab chiqishi zarur.

O‘quvchilarda motivatsiyani oshirishning psixologik usullari

1. Individual yondashuv.

Har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari va bilim olish uslubi farqlidir. Shuning uchun motivatsiyani oshirishda differensial va individual yondashuv asosiy rol o‘ynaydi. Psixolog o‘quvchining qiziqishlarini aniqlab, shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqishi mumkin.

2. O‘z-o‘zini anglash va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Motivatsiya o‘quvchining o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchidan ham kelib chiqadi. Shuning uchun o‘quvchilarni o‘zlarini baholashga, ijobjiy fazilatlarini tan olishga o‘rgatish muhimdir. Bu borada quyidagi usullar foydali: “O‘z kuchimga ishonaman” mavzusida psixologik treninglar, “Mening yutuqlarim” kundaligini yuritish, rag‘batlantiruvchi kartochkalar (motivatsion yozuvlar).

3. Maqsad qo‘yish va unga erishish bosqichlarini o‘rgatish.



Ko‘plab o‘quvchilar bilim olishda aniq maqsad qo‘ymasligi sababli motivatsiyasi pasayadi. Psixolog ularga qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlar qo‘yishni, harakat rejasini tuzishni o‘rgatishi mumkin. Bunda SMART texnologiyasi asosida ishlash tavsiya etiladi.

4. Emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratish.

O‘quvchi o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qilsa, uning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi. Psixolog ijobiy muloqot madaniyatini shakllantirib, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchi munosabatlarini yaxshilash bo‘yicha treninglar o‘tkazishi mumkin.

5. Rag‘bat va tan olish mexanizmlaridan foydalanish.

Yutuqni tan olish — kuchli motivatsion omil. Bunda faqat baho bilan emas, balki og‘zaki maqtov, faxriy yorliqlar, kichik sovg‘alar yoki sinf oldida tan olinish orqali rag‘batlantirish mumkin. Bular o‘quvchining o‘z ustida ishlashiga undaydi.

6. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish

O‘yin orqali o‘rganish o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishning samarali yo‘llaridan biridir. Didaktik o‘yinlar, psixologik mashqlar, guruhiy loyihamalar — bularning barchasi ta’lim jarayonini jonlantiradi va qiziqarli qiladi.

Motivatsiya — bu o‘quv jarayonining yuragi, uning mavjudligi yoki yo‘qligi natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktab psixologgi motivatsiyaga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlab, ularni tahlil qilish va kerakli psixologik yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni bilim olishga undashi mumkin. Bu nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Абдуллаев К. Х., Алиев А. А. Психология. — Тошкент: Ўқитувчи, 2006.
2. Юнусова З. Х. Педагогик психология. — Тошкент: “Фан”, 2018.
3. Ryan, R. M., Deci, E. L.(2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and new directions. *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54–67.



4. Imomova Shafoat Mahmudovna. PEDAGOGIK TEXNIKA – KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA// Pedagogik mahorat. 1 tom. 2- son (2024 yil, fevral), 2024, C. 56-59.
5. Imomova Shafoat Mahmudovna. TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 14, 2023, C.1075-1081
6. Boekaerts, M. (2002). Motivation to learn. Educational Practices Series, 10.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
8. Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.